

Menejment sohasidagi o'zgarishlar natijasida yuzaga keladigan salbiy oqibatlar

*Denov tadbirkorlik vxa pedagogika
instituti Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti
Iqtisodiyot yo'nalishi 2I-2021-guruh
3-bosqich talabasi **Abdurahimov Akbarali***

***Annotatsiya:** Hozirda mamlakatimiz rivojlanishida katta o'rin tutgan Menejment sohasida katta o'zgarishlar kuzatilmoqda. Bu o'zgarishlar natijasida ba'zi korxonalar va tashkilotlarda tushunmovchiliklar yuzaga kelmoqda. Ushbu maqolada yuzaga keladigan muammolarni oldini olish bo'yicha bir qancha usullar bilan tanishib chiqishingiz mumkin.*

***Kalit so'zlar:** Menejment, boshqarish, boshqaruvchi, menejer, boshqaruv usullari, korxonalar va tashkilot menejeri.*

KIRISH

Respublikamizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning samarali amalga oshirilishi uchun boshqarishning barcha sohalarida o'zgarishlar bo'lishi muhimdir. Harqanday ijtimoiy mehnat jarayoni u xox kichik, xox katta doirada bo'lsin, albatta samarali boshqaruvni talab qiladi. Kimdir xodimlar oldiga maqsad qo'yishi, vazifalarni to'g'ri taqsimlashi, vazifalar bajarilishini nazorat qilishi, insonlarni mehnat qilishga undashi, ularning harakatini baholab, muvofiqlashtirib borishi lozim. Bugungi zamonaviy rahbar ham mutaxassis, ham tadbirkor, ham tashkilotchi, shu bilan birga ayni paytda o'z huquqini biladigan va himoya qiladigan kishi bo'lishi kerak. Zamon talablariga javob beradigan fidoiy, yangilikka intiluvchan, tashabbuskor, kasbiy bilimlarga ega bo'lgan boshqaruv kadrlarini tayyorlash va ularning zahirasini shakllantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridandir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: «Barchamizga oyonki, islohot - bu yangilanish,

o'zgarish degani. Islohotlar ijobiy natija berishi uchun, avvalo, rahbarlarimiz va odamlarimiz o'zgarishi kerak. Zamonaviy boshqaruv tizimini joriy etish - oldimizga qo'ygan vazifalarni bajarishning asosiy shartidir. Davlat boshqaruvida zamonaviy menejment usullarini keng qo'llash zarur. Davlat boshqaruvida samarasdorlikni oshirish maqsadida davlat xizmatiga malakali mutaxassislarni jalb etishga qaratilgan yagona kadrlar siyosatini shakllantirish zarur». Rivojlangan mamlakatlarda to'plangan amaliy tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, xo'jalikni uzoq davomli va muvafaqqiyatli faoliyat yuritishining eng asosiy omillaridan biri menejment va menejerlar faoliyati bilan bog'liq ekan. Menejmentning eng ixcham ta'rifini quyidagicha keltirish mumkin: menejment - bu mehnat, aql-idrok, qobiliyat, tajriba va malakalarni ishga solgan holda maqsadlarga samarali erishishni tashkil etish, boshqarishdir.

Menejment-bu bozor iqtisodiyoti rivojlanishi talablariga to'liqjavob beradigan boshqarishning bir turidir. Boshqarish ishlab chiqarish va jamiyat rivojlanishidagi murakkab tadbir sifatida ko'p omillar bilan xarakterlanadi. Farq texnologik, ijtimoiy-psixologik va boshqa rivojlanish darajalari bilan ham aniqlanadi. Boshqarish kichik va yirik biznesda ham farqlanadi. Menejment ko'p qirralidir: iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, moliyaviy, falsafiy, psixologik, texnik, tashkiliy. Insonlar faoliyatini boshqarish professional-menejerdan yuksak san'atni, mahoratni, u tomonidan qo'llaniladigan usul va uslublarning keng to'plamini, boshqarish va tadbirkorlik malakalarini talab etadi. Har qanday tashkilot, korxon, muassasa, firma, korporatsiya va kompaniya tirik organizmdir.

Xarajat - mahsulotni ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) va uni sotish hamda ish haqi to'lashga sarflanadigan mablag'lar yig'indisidir. Xarajat tarkibiga:

- mahsulot (xizmat) tannarxi;
- ma'muriy xarajatlar;
- ijara va foiz to'lovlari;
- ish haqi;
- soliqlar kiradi.

Menejer mehnatini tashkil qilish

Menejer mehnatini tashkil qilish talabi bo'yicha boshqaruv apparatidagi har bir boshqaruvehi iloji boricha cheklangan va yetarli darajada bir xil ishga ega bo'lishi kerak. Bu aniq amaliy tajriba to'planishida yordam beradi. Ixtisoslashtirishda xodimning malakasi oshadi. Mehnatni tashkil etish boshqaruv organlari va boshqaruv apparati bo'linmalari ishchilari orasida munosabatlarni o'rnatishni taqozo etadi. Menejerlar mehnatini tashkil etish va taqsimlash tizimi bo'linmalar haqidagi nizom va boshqaruv apparati xodimlarining lavozim yo'riqnomalarida o'z ifodasini topadi. Tashkilotlar to'g'risidagi qonun asosida tashkilot va uning bo'linmalarida har bir rahbar, mutaxassis va texnik xodim uchun aniq lavozim yo'riqnomalari ishlab chiqiladi. Lavozim yo'riqnomalari xodimlarning ma'muriy va funksional munosabatlarini, huquq va majburiyatlarini, yakkahokimlik tamoyili asosida lavozimli shaxslarning bo'ysunuvchanligini, berilgan ishga javobgarlikni aniqlab beradi. Ishlab chiqarishni, mehnatni va boshqarishni mukammallashtirish bilan bog'liq bo'lgan o'zgarishlarni hisobga olish uchun nizom va lavozim yo'riqnomalarini vaqt-vaqti bilan tuzatib turish kerak. Ishlab chiqarishni boshqarishda foydalaniladigan axborotlarning muhim shakli - bu yozma axborot, ya'ni hujjatdir. Boshqaruv ishi texnologiyasida hujjatlar bilan ishlash (70 % ish vaqti) katta hajmni egallaydi. Hujjatli axborot ishlab chiqarishni boshqarishning barcha jarayonlariga singib ketadi. Hujjatlarsiz boshqarishning bironta ham funksiyasi muvaffaqiyatli amalga oshmaydi. Barcha boshqarish xodimlari u yoki bu tarzda hujjatli axborotni qayta ishlashda band bo'ladilar. Mutaxassislarning anchagina qismi uchun esa bu ish ular mehnatining asosiy mazmunini tashkil etadi. Bu hujjatlar aylanishini doimiy mukammallashtirish zaruriyati bilan aniqlanadi. Hujjatlashtirish va ish yuritishning ahamiyati ikkita omil bilan belgilanadi. Birinchidan, boshqaruv mehnatining umumiy hajmida ish yuritish operatsiyalarining salmog'i katta bo'lib, 30-60 foizgacha etadi. Yirik va o'rta korxonalarni boshqarish jarayonida minglab xilma-xil hujjatlardan foydalaniladi. Ishlab chiqarishga oid operatsiyalarning aksariyati hujjatlashtirish yordamida boshlanadi, amalga oshiriladi, nazorat qilinadi, tartibga solinadi va nihoyasiga yetkaziladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ricky W. Griffin. Fundamental of management. 8 th Edition. 2015.
2. Richard L.Daft. Management. Ninth edition.2010.
3. Yo‘ldoshev N.D, Nabokov V.I. “Menejment nazariyasi”. Darslik. T.:TD1U, 2013.
4. Sharifxo‘jayev M. Menejment. Darslik.T.: O‘qituvchi, 2002.
5. Zaynutdinov Sh.N. “Menejment nazariyasi”. Darslik. T.: Iqtisodiyot, 2014.
6. Ziyavitdinova N.M., Xayitov Sh.N., O‘rinov Y.M. Menejment. Darslik. T.: 2019.
7. Shomirzayev E.A. va boshqalar. Qurilishda menejment. 1-qism. TAQI, 2013.
8. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. -T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2016.